

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası

Kubroviylik
tariqati

Tayyorladi: 4-kurs talabasi
Qo'chqorova Aziza



***Kubroviylik** – tasavvuf tariqati 13-asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro asos solgan. Kubroning tasavvufiy ta'limotiga ko'ra, inson o'z mohiyati bilan kichik olamdир, u katta olam bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni va sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo'lini qidiruvchilar bunday kamolotga erishish uchun ma'lum riyozatli yo'llarni o'tashlari zarur.*



*Najmiddin Kubro asl ismi sharifi Ahmad ibn Umar
ibn Muahammad Xivaqiy al Xorazmiy (1145-1221)
ulug' shayx tasavvufning taniqli vakillaridan biri,
kubroviylik tariqatining asoschisi (uning taxallusi
“dinning ulug' yuldzizi” ma'nosini beradi)*

Kubro kamolotga asoslarini quyidagi 10 ta talabda ifodalab bergan

:

***Tavba** - barcha amallarning boshi bo'lib, Alloh oldida tavba qilish, bundan keyingi ilohiy ezgulik va xayrga bag'ishlashga ahd qilish;*

***Zuhd** - taqvo, parhez, xaromdan hazar qilib, halollikka yuz tutish, Alloh man qilgan ishlarni qilmaslik; **Tavakkul** (tavakkal) – barcha ishlarni qilishda Allohning mehribonligi va qudratiga tayanish;*

***Qanoat** – hayot kechirishda oz narsa bilan qanoatlanish, mo'tadillik, tuban mayllardan ozod bo'lish; **Uzlat** – tanholikda bo'lish, xilvatta ruhni poklash;*

***Tavajjuh** (yuzlanish) – butun vujud bilan Alohgga yuzlanib, undan madad so'rash, u sari qalban intilish;*

***Sabr** – solikning o'z e'tiqodi, niyatlarini sinashi, haq yo'lining azobu iztiroblariga chidagan kishilargina maqsadga erishadi;*
***Muroqaba** (tafakkurga g'arq bo'lish) – qalb poklangani va tuban ehtirolardan holiligini tuyib, xotirjam bo'lganini eslab xayolga cho'mish, haq taolo rahm shavqatini kutib turish; **Zikr** –*
*Allohning ismini tilidan qo'ymaslik, kalimayi duolarni muntazam takrorlab turish; **Rizo** – Alloh qudratini chuqur his qilgan holda o'zini butkul uning irodasiga topshirish va bundan huzurlanish.*
Bu maqom solikni haqqa haqning unga yaqinlashganligini bildiradi.



Kubroviyada ranglar muhim rol o'ynaydi, ular so'fining ruhiy holatlarini Alloh tomon qo'ygan qadamining bosqichlarini bildirib turadi.

Zangori rang solikning tavba qilib tariqatga qadam qo'yganida ko'rinadi;

Sariq rangda solikning Alloh yodi bilan yashashi tushuniladi;

Qizil rang solikning ruhi vujudidan ajrala boshlaganini ma'rifatga yaqinlashganligini bildiradi; Oq rang yurakning poklanishiga ishora va haqiqatni anglashning boshlanishidir.

Yashil rang vahiylikdan nishona. U sirlarning siriga, g'aybga oshnolikni bildiradi.



Mazkur ranglar solikning Alloh tomon ruhiy safarini anglatsa, qora rang Allohdan xalq sari safarini bildiradi, sirlar xazinasini egallashini va hayratga g'arq bo'lishini ifodalaydi.



*Najmiddin Kubrodagi ranglar va ularning ma'nolari ba'zi mutassaviflar ta'riflagan ranglarning sharxidan farq qiladi. Kubro yetti rang xislatini yetti tushunchaga moslab tushuntirgan. Uningcha, **oq rang** – islomni, **sariq rang** – ehsonni, **yashil rang** – itminon (ishonch)ni, **ko'k rang** – iqon (to'liq ishonch)ni, **qizil rang** – irfonni, **qora rang** – hayajon (hayrat)ni anglatadi. Solik ruhi holatlarini, qaysi rang ko'z oldida namoyon bo'layotganini pirga aytib turishi kerak. Pir shunga qarab, muridning qaysi bosqichda turganini bilib, unga yangi vazifalar yuklaydi.*



*Kubroviylik ayniqsa Hindistonda chuqur ildiz otgan.
Keyinchalik Kubroviylikning bir qancha mustaqil
shaxobchalari vujudga keldi.
Bular – firdafsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya,
ig'tishoshiya, zahabiya, nurbaxshiya.*



*Kubroviyalik tufayli irfoniy hikmat va
insoniy poklik, ilohiy ma'rifat g'oyalari butun
Sharqqa tarqaldi, bu tariqat islomning
shuhratiga shuhrat qo'shdi.*